

BUXORO VILOYATI HUDUDIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATI VA ISTIQBOLLARI

© K.Sh.Nasullayeva

¹ *Buxoro davlat pedagogika institutida o'qituvchi, Buxoro, O'zbekiston*

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

© К.Ш.Насуллаева

¹ *Преподаватель Бухарского государственного педагогического
института, Бухара, Узбекистан*

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE IN THE BUKHARA REGION

© K.Sh.Nasullaeva

¹ *Teacher of the Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan*

***Annotatsiya:** Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallaydi. 40,3 ming kv.km hududni o'zida mujassamlashtirgan, 1,7 mln kishidan ortiq aholi istiqomat qilayotgan ushbu maskanda strategik ahamiyatga ega sanoat, qishloq xo'jalik va nomoddiy sohalarning tarmoqlari rivojlangan. Muallif tomonidan Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyati va istiqbollari haqida fikr mulohaza yuritilgan.*

***Kalit so'zi:** Buxoro, go'sht, sut, tuxum, jun, qorako'l teri.*

***Abstract:** The Bukhara region occupies a key position in the political and socioeconomic life of the Republic of Uzbekistan. Covering an area of 40,300 square kilometers and home to over 1.7 million people, this region boasts developed, strategically important industrial, agricultural, and non-resource sectors. The author examines the possibilities and prospects for the development of agriculture in the Bukhara region.*

Keywords: *Bukhara, meat, milk, eggs, wool, karakul leather.*

Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallaydi. 40,3 ming kv.km hududni o'zida mujassamlashtirgan, 1,7 mln kishidan ortiq aholi istiqomat qilayotgan ushbu maskanda strategik ahamiyatga ega sanoat, qishloq xo'jalik va nomoddiy sohalarning tarmoqlari rivojlangan. 2018 yilga kelib viloyatning barcha toifa xo'jaliklarida yiliga o'rtacha 182657 tonnadan ortiq go'sht, 723979 tonnadan ziyod sut, 286436 mln dona tuxum, 34512 s jun, 398742 dona qorako'l teri ishlab chiqarilmoqda. Ammo bugungi kunda Buxoro viloyatida demografik vaziyat turg'un bo'lib, aholi soni yildan-yilga ko'paymoqda. Shuningdek, turizm industriyasining keskin rivojlanishi sayyohlar soni ham oshmoqda. Shu bilan bir qatorda davlatlararo iqtisodiy aloqalarning kengayishi tufayli viloyat eksport mahsulotlari tarkibida mazkur mahsulotlardan ayrimlarini ulushining oshishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi omillar viloyatda chorvachilikni rivojlantirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari ko'lamining muttasil oshirishni talab etmoqda.

Cho'l zonasida joylashgan Buxoro viloyati sharoitida chorvachilikning rivojlanishi birinchi navbat sug'oriladigan yerlarda ekiladigan beda, makkajo'xori, tariq, arpa va boshqa ekinlarni yetishtirish hajmi, hosildorligi, sifati hamda cho'l-yaylovlar holatiga bog'liq.

Buxoro viloyatining tabiiy-geografik komplekslari iqlim, relyef va tuproq turlari bo'yicha farqlanadi. Viloyatda uchraydigan asosiy tabiiy geografik komplekslar quyidagilar: allyuvial-daryo vodiylari, sug'oriladigan cho'l zonalar, tabiiy cho'l komplekslari va sho'rlangan pasttekisliklar. Har bir kompleks o'ziga xos qishloq xo'jaligi yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Masalan, Zarafshon daryosi vodiylari atrofidagi allyuvial tuproqlar unumdorligi yuqori bo'lib, asosan paxtachilik, g'allachilik va sabzavotchilik uchun qulay hisoblanadi. Cho'l zonalarida esa chorvachilik, ayniqsa qo'ychilik va tuyalarning boqilishi uchun tabiiy sharoit mavjud. So'nggi yillarda Buxoro viloyatida tomchilatib sug'orish va suvni tejovchi agrotexnologiyalar joriy

etilmoqda. Bugungi kunda viloyat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Buxoro viloyatida dehqonchilik va chorvachilik asosiy tarmoqlar bo'lib, ularning rivojlanishi tabiiy-geografik komplekslardan oqilona foydalanishga bog'liq. Hozirgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyatdagi sug'oriladigan yerlar maydoni 250 ming gektardan ortiq. Asosiy ekin turlari – paxta, g'alla, sabzavot-poliz ekinlari, yem-xashak o'simliklari hisoblanadi. Shuningdek, ayrim tumanlarda bog'dorchilik va uzumchilik sohalari rivojlanmoqda.

Cho'l hududlarida yaylov resurslaridan foydalanish asosiy yo'nalish bo'lib, qo'y, echki va tuya boqish orqali go'sht, sut, jun mahsulotlari olinadi. Biroq, yaylovlarning haddan ortiq foydalanilishi natijasida ularning tabiiy tiklanish sur'atlari pasaygan. Shuning uchun ekologik barqaror chorvachilik tizimlarini joriy etish zarur. Viloyat qishloq xo'jaligida asosiy muammolar quyidagilardan iborat: suv resurslarining cheklanganligi, tuproqning sho'rlanishi, yaylovlarning degradatsiyasi va iqlim o'zgarishlari ta'siri. Suv ta'minotining yetarli emasligi, ayniqsa, yoz oylarida hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amudaryo suvining kamayishi va suvni tejash texnologiyalarining to'liq joriy etilmaganligi bu jarayonni yanada kuchaytirmoqda.

Muammolarni hal etish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

- tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish;
- tuproq unumdorligini oshiruvchi agrotexnik chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- yaylovlarni muhofaza qilish va ularni rekultivatsiya qilish;
- ilmiy asoslangan qishloq xo'jaligi tizimlarini keng joriy etish.

Buxoro viloyati tabiiy-geografik komplekslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy manbasi hisoblanadi. Hududning tabiiy sharoitlarini to'g'ri baholash, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali viloyatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Kelajakda ekologik barqarorlikni saqlagan holda, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini

diversifikatsiya qilish va ilmiy yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Закиров Ш.С., Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. Т. "Меҳнат", 1985. – 160 б.
2. Tashov X.R., A. N.Nematov. Geological and geomorphological features of the territory of Bukhara region. «Theoretical and Applied Sciences in the USA» 5февраля 2015, США (Теоретические и прикладные науки в США) 3-5.
3. Ташов Х.Р., Мирзаева И.Э. Климат и экономика: его последствия (на примере Бухарского вилоята). Тюркоязычное страны. Республиканский научно-методическая и познавательный журнал. Казахстан. Алматы № 2 (18) 2016 г. С. 11-13.
4. Тошов Х.Р., Орипов М.А., Қодиров А.А. Бухоро вилояти иқлимнинг яйлов чорвачилиги ривожланишига таъсири. Международная научно-практическая конференция «Проблемы и перспективы комплексных географических исследований в Аральском регионе и сопредельных территориях». Нукус, 15-16 мая, 2018 г. С. 113-115.